

UO‘T:633:11+631:1+631+55

**LALMIKORLIK SHAROITIDA QATTIQ BUG‘DOYNING YANGI “MINGCHINOR”
NAVI DON HOSILDORLIGINING EKISH MUDDATLARI VA ME’YORLARIGA
BOG‘LIQLIGI****Qarshiyev Alisher Eshmamatovich** - mustaqil tadqiqotchi, e-mail: aliqarshiyev1978@gmail.com

Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti

Аннотация. Ушбу мақолада қаттиқ бугдойнинг янги Мингчинор навини лалмикор шароитида етиштиришда ҳосилдорликни экиш муддати ва меъёрларига боғлиқлигини ўрганилди ҳамда қулай экиш муддати ва меъёрларини тавсия этилганлиги бўйича тадқиқот натижалар берилган.

Таянч сўзлар: қаттиқ бугдой, лалми шароит, экиш меъёри, экиш муддати, нав, Мингчинар, ҳосилдорлик.

Abstract. The article describes the yield of a new variety of durum wheat Mingchinor grown in rainfed conditions, depending on the timing and sowing rate, and gives recommendations on the optimal sowing rates and timing.

Keywords: durum wheat, rainfed conditions, seeding rate, sowing time, variety, Mingchinor, yield.

Kirish. Bugungi kunda dunyoda lalmikor maydonlar 1,4 mlrd. gektarni yoki jami dehqonchilik maydonlarining 85-87 foizini tashkil qiladi [1]. Hozirgi paytda lalmikor yerlar asosan Afg‘oniston, Eron, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Sudan, Turkiya, Markaziy Osiyo davlatlarida keng tarqalgan, bugungi kunda lalmikor yerlar ulkan ahamiyatga ega bo‘lib, sug‘orilmaydigan hududlardan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda samarali foydalanish imkoniyatini beradi [2].

Qattiq bug‘doy – bu issiq va quruq iqlim ekinidir. Dunyo bo‘yicha hozirgi davrda qattiq bug‘doy (*Triticum durum*) muhim oziq-ovqat ekinlaridan biri bo‘lib, yiliga 36,0 mln.t don ishlab chiqariladi. Bu ko‘rsatkich Yevropa Ittifoqida 7,5 mln.t, Meksikada 2,3 mln.t.ga teng bo‘lib, keyingi yillarda qattiq bug‘doyni ishlab chiqarish Fransiyada, Italiyada, Suriyada, Turkiya, Aljiriya, Marakko, Ispaniya, Qozog‘iston va Kanada mamlakatlarida ko‘paymoqda [3].

Tadqiqot maqsadi. Dunyoda va mamlakatimizda makaron va qandolat sanoatining eng muhim xomashyosi bo‘lgan qattiq bug‘doy (*Triticum durum*) don hosilini yetishtirishga talab kundan kunga oshib bormoqda. Hozirgi kunda respublikada makaron mahsulotlari asosan yumshoq bug‘doydan tayyorlanmoqda. Yumshoq bug‘doydan tayyorlangan makaron andoza talablariga to‘liq javob bermaydi. Lalmikor yerlardan samarali foydalanish, lalmi maydonlarda yetishtirilayotgan g‘alla hosildorligini oshirish, ichki va tashqi bozorda qattiq bug‘doy (*Triticum durum*) doniga bo‘lgan ehtiyojning yuqoriligini hisobga olgan holda noqulay omillariga chidamli, lalmikor maydonlar uchun hosildor va don sifati yuqori bo‘lgan, davlat andoza talablariga javob beradigan qattiq bug‘doyning yangi navlarini yaratish hamda bu navlarining biologik xususiyatlari, tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda ularning ilmiy asoslangan yetishtirish texnologiyasi elementlarining maqbul ekish muddatlari va meyorlarini to‘g‘ri belgilash ya‘ni yetishtirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish asosida yuqori va sifatli mahsulot yetishtirishni ta‘minlash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, Qashqadaryo viloyatini lalmikorlikning qir-adirlik (tekislik-adirlik) mintaqasi tipik bo‘z tuproqlari sharoitida yangi qattiq bug‘doy navlaridan iqtisodiy samarali va yuqori don hosili yetishtirish uchun maqbul ekish muddatlari va meyorlarini aniqlash hamda ishlab chiqarishga tavsiyalar berishni tadqiqot oldiga maqsad qilib quydik.

Tadqiqot usullari. Ilmiy-tadqiqot ishlarida laboratoriya, dala va ishlab chiqarish tajribalarini qo‘yish, fenologik kuzatish, biometrik o‘lchovlar, fiziologik tahlillar «Методы агрохимических анализов почв и растений», «Методика Государственного сортоиспытания

сельскохозяйственных культур», «Методы агрофизических исследований», «Dala tajribalarni o'tkazish uslublari» kabi uslubiy qo'llanmalar asosida olib borildi. Dala tajribalarda olingan natijalarining statistik tahlili WinQSB-2.0 hamda Microsoft Excel dasturlari yordamida B.A.Dospexov uslubi bo'yicha hisoblangan [7].

Tadqiqot natijalari. Dala tajribalari Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanining lalmikor qir-adirlik mintaqasi "Yashin-Yamin" fermer xo'jaligi tipik bo'z tuproqlari sharoitida o'tkazildi. Olib borilgan tajribalarda qattiq bug'doyning yangi Mingchinor navining ekish muddatlari va me'yorlarining don hosildorligiga bog'liqligi 4 qaytariqda, 1-oktabr, 21-oktabr, 11-noyabr va 1-dekabr muddatlarida gektariga ekish me'yori 2,0; 2,5; 3,0 va 3,5 mln. unuvchan urug' hisobida ekib o'rganildi.

Lalmikor maydonlarda kuzgi bug'doy navlarini ularni biologik hayot kechirish tarzi va agrobiologik xususiyatlari, tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olib ekish me'yorlarini belgilash zarur [4,9].

O'simlik tup qalinligi kuzgi bug'doy o'sishi, rivojlanishi va hosildorligini aniqlaydigan muhim omillardan biri hisoblanadi.


Urug'lar siyrak ekilganda maydonlardan o'simlik yetarli foydalana olmaydi, dalani begona o'tlar bosadi, tuplanishi oshib ketadi, natijada har hil sifatli urug' shakllanadi, mahsuldor poyalar yetarli bo'lmaydi, pishish davri uzayadi. Aksincha zich ekilgan maydonlarda o'simlikka namlik, oziq moddalar yetishmasligi yotib qolishi tufayli tovarligi va urug'ning sifati past bo'ladi, puch donlar hosil bo'ladi, hosildorlik kamayadi [5].

Hosildorlik ma'lum birlikdagi o'simliklar hosilining yig'indisidir. Ekinzorda o'simliklar siyrak bo'lsa, har bir alohida olingan o'simlikning mahsuldorligi pasayib boradi, ammo hosildorlik ma'lum darajada oshib boradi. Bunda ma'lum birlikdagi maydonda o'simliklar soni optimallasadi, hosildorlik eng yuqori bo'ladi, keyinchalik hosildorlik sekinlik bilan pasayib borishi kuzatiladi.

Kuzgi bug'doyning ekish me'yori turli ekish muddatlarida har xil bo'lishi Guyda va boshqalar [6], Xalilov [8] tadqiqotlarida ko'rsatilgan.

Tajribalarimiz ko'rsatishicha qattiq bug'doyning Mingchinor navi 1-oktabr (nazorat)da gektariga 2,0 mln. unuvchan urug' me'yorda ekilganda don hosili gektaridan 15,0 s ni tashkil etdi. Ekish me'yori gektariga 2,0 mln.dan 3,5 mln.gacha oshirilganda don hosili kamayib bordi. Don hosili ekish me'yori 3,5 mln.unuvchan urug' ekilganda 2,0 mln.urug' ekilganga nisbatan 1,1s ga kamaydi.

Mingchinor navini 21-oktabr muddatida ekish me'yori gektariga 2,0 mln.dan 2,5 mln.gacha ko'paytirilganda don hosili gektaridan 1,2 s ga oshdi. Ekish me'yorini gektariga 2,0 mln.dan 3,5 mln.ga oshirilganda don hosili gektaridan 0,2 s ga kamaydi.



1-rasm. Qattiq bug'doy Mingchinor navi hosildorligining ekish muddatlari va me'yorlariga bog'liqligi

Ekishni 21-oktabr muddatidan kechikib 11-noyabrda ekilganda hamma ekish me'yorlarida ham bug'doy don hosili kamaydi, lekin ekish me'yorlari gektariga 2,5 mln.dan 3,0 mln.unuvchan urug'ga oshirilganda, don hosili gektaridan Mingchinor navida 1,2 s ga oshdi. Ekish me'yorini yanada gektariga 3,5 mln.gacha oshirilganda hosildorlik oshishida ishonarli farq kuzatilmadi.

Ekish 1-dekabr muddatida kechiktirib ekilganda Mingchinor navida eng yuqori hosil gektariga 3,0 mln. unuvchan urug' ekilganda kuzatildi. Ekish muddatining 21-oktabrdan kechikishi bilan hosildorlikning kamayishi statistik jihatdan isbotlandi (1-rasm).

Bunda bog'liqlikning regressiya tenglamasi $y = 8,85 + 6,59x - 1,35x^2$ ga bo'ysunishi va korrelyatsiya koeffitsienti $r=0,95$ ga teng bo'lganligi aniqlandi. Ta'kidlash kerakki, eng yuqori hosildorlik gektariga 2,5 mln. unuvchan urug' ekilgan variantda qayd etildi.

Xulosa. Shunday qilib lalmikor qir-adirlik mintaqasi sharoitida qattiq bug'doyning Mingchinor navini 21-oktabr muddatida gektariga 2,5 mln unuvchan urug' va ekish kechikishi bilan 11-noyabr, 1-dekabr muddatlarda ekish me'yorini gektariga 3,0 mln.unuvchan urug'gacha oshirilgan paykallarda yuqori don hosildorligi shakllandi.

Adabiyotlar

1. <http://www.fao.org> 2020.
2. Agronomy 2020, 10, 432; doi:10.3390/agronomy10030432
3. [2016/01/pastoria 2015_N06_en-artOF.pdf](#)
4. Ilashev A., O'rinboyev T., Siddiqov R. Jizzaxda bug'doychilikning ilmiy-amaliy asoslari. Sangzor nashriyoti, 2012. –B. 60-70.
5. Губанов Я.В., Потеха Н.Г., Кузнецов И.А., Тарасенко Б.И., Носов П.В., Серебряков А.И. Агротехника озимой пшеницы. М.Колос, 1967. –С. 240.
6. Гуйда Н.И., Кукаева В.П., Постовой Т.С. Некоторые вопросы технологии возделывания полукормовой пшеницы в условиях орошения./ Тр Кубанского СХИ – 1985. – Вып, 263. –С. 74–75.
7. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта.-М.:«Агропромиздат», 1986.-361с.
8. Халилов Н.Х. Научные основы возделывания пшеницы осеннего посева на орошаемых землях Узбекистана. Дисс. На соис. Док. С.-х наук. Самарканд, 1994. –С. 358.
6. Каршиев А.Э., Бобомирзаев П.Х. Роль сорта, сроков и норм посева в технологии выращивания твердой пшеницы на богарах // Журнал Актуальные проблемы современной науки, Москва, 2022, № 4 (127). – С.44-47. (06.00.00; № 5).